



ORIENTAL UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI
SHARQ TILLARI KAFEDRASI

“O‘ZBEKISTONDA ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK: TILLAR TA’LIMI VA TADQIQI”

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA
ILMIY-AMALIY ANJUMANI
MATERIALLARI

**ORIENTAL UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI
SHARQ TILLARI KAFEDRASI**



**«O‘ZBEKISTONDA ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK:
TILLAR TA’LIMI VA TADQIQI»
MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
ANJUMANI MATERIALLARI**

TOSHKENT – 2023

“O‘zbekistonda zamonaviy tilshunoslik: tillar ta’limi va tadqiqi” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent: Oriental universiteti, 2023. – 586 bet.

To‘plamda 2023-yil 25-oktabrda Oriental universitetida o‘tkazilgan “O‘zbekistonda zamonaviy tilshunoslik: tillar ta’limi va tadqiqi” deb nomlangan Respublika ilmiy-amaliy anjumanida ishtirok etgan tilshunos olimlar, yosh tadqiqotchilarning ma’ruzalari jamlangan.

Tahrir hay’ati:

M.Axmedov	Oriental universiteti rektori, iqtisod fanlari nomzodi
M. Nasirova	Oriental universiteti ilmiy ishlar bo‘yicha prorektori
R. Ismoilov	Oriental universiteti Filologiya fakulteti dekani
S.Rustamiy	Oriental universiteti Sharq tillari kafedrasi mudiri, filologiya fanlari doktori, professor

Nashrga tayyorlovchi:

N. Ahmedova	Oriental universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi
--------------------	--

Taqrizchilar:

N. Saydirahimova	O‘zbekiston xalqari islom akademiyasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi
Sh. Hasanova	Oriental universiteti dotsenti, filologiya fanlari doktori

To‘plamdan o‘rin olgan maqolalarning saviyasi, sifati va ilmiy dalillarning haqqoniyligi hamda mazmuni uchun mualliflar mas’uldirlar.

To‘plam Oriental universiteti kengashi qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

© Oriental universiteti, 2023

ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILAR NUTQIDAGI TA'SIRCHANLIKNI TA'MINLASH MAZMUNI

Tursunoy Yusupova,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO 'TAU dotsenti,
pedagogika fanlari nomzodi

Bugungi kunda maktab ona tili ta'limi mazmunini belgilashda kommunikativ yondashuvga alohida e'tibor bilan qaralmoqda. Kommunikativlik nutq madaniyatini, muomala odobini amaliy maqsadlarda egallashga doir yondashuvlardan biridir. Chunonchi, jamiyatimiz taraqqiyotining bugungi bosqichida davlat tilini ritorika darajasida o'rganish, uni keng miqyosda qo'llash shuni taqazo etmoqda. Ayniqsa, nutq madaniyatini egallashga doir ishlar milliy ma'naviyatni singdirish shakllaridan biriga aylanib bormoqda.

Kommunikativlik nutq madaniyatini amaliy maqsadlarda egallashga doir yondashuvlardan biridir. Kommunikativ yondashuvning mohiyati shundaki, so'zlovchi tinglovchiga axborot berish bilan birga, unga qandaydir ta'sir o'tkazadi: o'z so'ziga ishontiradi, unga biror masalada dalda beradi, ruhini ko'taradi, biror nojo'ya xatti-harakatdan qaytaradi va hakazo. Gaplarni ta'sirchan qilib tuzishga doir bilim, ko'nikma va malakalarni egallash jarayonida ana shu kommunikativ jihatlarni ro'y-rost amalga oshirish maktabi o'taladi.

So'z va so'z shaklini to'g'ri va o'rinli ishlatish, chiroyli va ta'sirchan so'zlash, nutqda ortiqcha so'zlarni qo'llamaslik kabilar qadimdanoq barcha ustozlar, jumladan, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy kabi buyuk allomalar o'gitlarining asosini tashkil qilib kelgan. Chunonchi, O'rta Osiyo madaniyati tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, nutq madaniyati bilan shug'ullanish o'ziga xos mavqega ega bo'lib kelganligini ko'rish

mumkin. “Mashhur turkolog Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asari bu masalaning juda qadimdan o‘rtaga qo‘yib kelingamligidan dalolat beradi. U davrlarda shartli ravishda nutq odobi deb yuritiladigan qoida va ko‘rsatmalarda sodda va o‘rinli gapirish, qisqa va maznundor so‘zlash ... haqida fikrlar aytilgan”[1,24].

Rus tilini o‘qitish metodikasiga doir ishlarni va ta’lim rus tilida olib boriladigan maktablarning ona tili ta’limi tajribalarini o‘rganish shundan dalolat beradiki, ularning o‘quv rejalari tarkibiga hozirgi kunda ritorika fani ham kiritilgan. Metodist N.A.Ippolitova bu fanga shunday ta’rif beradi: “Ritorika – bu samarali muloqot to‘g‘risidagi fan. Samarali muloqot, eng avvalo, o‘zidagi kommunikativ vazifani amalga oshira olish bilan bog‘liqdir”[2,16]. Demak, ritorika fani o‘quvchilarni muloqotning samarali bo‘lishiga xizmat qiladigan bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirib, kommunikativ yondashuvni to‘liq joriy etishda o‘z ifodasini topadi.

Ona tili darslarining har birida nazariy ma’lumotlar ustida ish olib borilganda, ya’ni yangi mavzu tushuntirilganda, o‘tilganlar so‘ralganda har gal o‘quvchilardan misollar keltirish – gaplar tuzish talab etiladi, xolos. Aynan shu jarayon o‘quvchi nutqida ta’sirchanlikni ta’minlashga qaratilgan holda tashkil etilsa, natijada o‘quvchi nutqida barkamollikka erishish mumkin, aksincha shu jarayonda o‘quvchilar tuzadigan gaplarning mazmundorligiga, ta’sirchanligiga, sintaktik qurilishining boyligi va rang-barangligiga, kommunikativ qiymatiga e’tibor berilmasa, nutqiy rivojlanishda siljish sust boradi. Hammamiz yaxshi bilamiz, o‘quvchi nutqini o‘stirish, o‘quvchi nutqidagi ta’sirchanlikni ta’minlash masalasi, asosan, bog‘lanishli nutq yo‘nalishidagi yozma ishlar: ijodiy diktant, bayon, insho, esse va matn yaratish kabilar zimmasiga yuklanib kelmoqda. Chunonchi, nutq o‘stirish masalasiga o‘quv yili davomida e’tibor qaratilmay, balki vaqti-vaqti bilan tashkil qilinadigan yozma ishlar jarayonidagina diqqat qilinadigan bo‘lsa,

muntazamlilik yo‘qoladi. Bu esa o‘quvchida o‘z nutqi ustida ishlash ko‘nikmasini shakllanishiga salbiy ta’sir qiladi. Bugungi kun ona tili ta’limida yozma ishlar ustida olib boriladigan ishlarda asosiy diqqat-e’tibor yozma ishlarda yo‘l qo‘yiladigan xatolarga qaratilmoqda. Unda o‘quvchilar nutqi mahsullarini tekshirish va natijalarini baholashda yo‘l qo‘yilgan imloviy, leksik va grammatik, juda kam miqdorda uslubiy xatolar tahlil qilinadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, o‘quvchilarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga bo‘lgan ehtiyoj amalga oshmay qoladi. Ayni shu muammolar bugungi kunda Ona tili ta’limi Milliy dasturini yangilashni taqazo qiladi.

Respublika Ta’lim Markazi tashabbusi bilan bir guruh olimlar hamda tajribali ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari bilan hamkorlikda “Umumiy o‘rta ta’limning milliy o‘quv dasturi” loyihasi tayyorlanib keng jamoatchilikka taqdim etildi. Hoziri kunda u amalda qo‘llanilmoqda. Ona tili fani Milliy o‘quv dasturi asosida darliklar ham yaratila ham boshlandi. Dasturda ona tilini o‘qitishda kommunikativ yondashuvga asoslangan ta’limga e’tibor qaratilgan. Unda kommunikativ yondashuvga asoslangan ta’lim quyidagi 4 xil kognitiv malakani o‘zida jamlashni nazarda tutadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, hozirgi kunda o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilari, ayniqsa, bitiruvchilarining xalqaro standartlar talabi asosida o‘z ona tilida so‘zlashishning 4 xil kognitiv malakasini o‘zida jamlashi, ya’ni eshitilgan yoki guvohi bo‘lgan video va audioaxborotlarni erkin sharhlashi (eshitib tushunish), ijtimoiy muloqot madaniyatiga ega bo‘lishi (fikrni og‘zaki bayon qilish), berilgan matnni tahlil qila olishi, axborot mazmunidan hukm va xulosalar chiqara olishi (o‘qib tushunish) va nutqiy vaziyatga ko‘ra mustaqil matn yarata olishi (fikrni yozma bayon qilish) muhim ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda.

Ona tilidan umumiy o‘rta ta’limning milliy o‘quv dasturi” [3] da “Ona tili” fani nafaqat leksik va grammatik me’yorlarni o‘rgatuvchi,

balki o'quvchi nutqiy faoliyatida ixtiyoriy mavzu, fanlar kesimidagi matnlarni tinglab tushunish, to'g'ri o'qish, orfoepik va orfografik me'yorlarni qo'llash salohiyatini rivojlantirishiga xizmat qiladigan fan sifatida tavsiflanadi. Dasturda o'quvchining mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlashi uchun ona tili darslarida o'qib tushunishga alohida e'tibor qaratiladi: ona tilini puxta o'zlashtirgan o'quvchi boshqa fanlarni qoniqarli o'zlashtira olishi, o'qish savodxonligi mukammal bo'lgan o'quvchi boshqa fanlarda o'rganayotgan matnlarni o'qish orqali mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlashi, olgan bilimlarini hayotda qo'llay olish layoqatining rivojlanishi masalalariga oydinlik kiritiladi. Shuningdek, o'quvchining mantiqiy fikrlashini va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan xalqaro baholash dasturi (PISA, PIRLS) talablariga mos keladigan matnlar bilan ishlashga mo'ljallangan amaliy topshiriqlarni matnlarning mazmuniga moslashtirish o'qituvchiga asosiy vazifa sifatida yuklatiladi. Bunda matnni tushunish, tahliliy, tanqidiy fikrlash va munosabat bildirish malakalarini shakllantirish ko'zda tutiladi.

Ona tili fani o'quvchi shaxsida fikrlashga, o'zgalar fikrini anglashga, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda nutq sharoitiga mos ravishda to'g'ri va ravon bayon qila olishga qaratilgan nutqiy (kommunikativ) kompetensiyani rivojlantirish; o'quvchida til qurilishiga oid o'zlashtiriladigan amaliy bilimlarni (fonetika (orfoepiya), leksika, so'z tarkibi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) rivojlantirishga qaratiladi. Demak, ona tili darslarida beriladigan bilimlar va amalga oshiriladigan barcha amaliy ishlar o'quvchilar nutqidagi ta'sirchanlikni ta'minlash masalasiga qaratilishi lozim.

5-7-sinf ona tili darslarining har birida so'z boyligidan keng foydalanib, turli munosabat bilan mazmundor va ta'sirchan gap tuzishga muvaffaq bo'linsa, 5-9-sinflarda o'tiladigan jami o'quv soatlarida kata

miqdordagi leksik qatlamni faollashtirishga erishiladi. Pirovardida har bir o'quvchining nutqiga beqiyos sifat o'zgarishlari olib kiriladi. Aksincha, loqaydlik bilan shunchaki topshiriqni bir amallab bajarish uchungina gap tuzish oxir-oqibatda bolalarning ona tilini o'rganishidagi noaniqlikka, ta'limiy mo'ljalsizlikka sabab bo'ladi.

1999-yilda qabul qilingan "Ona tili" davlat ta'lim standarti[4, 46-54] da so'y boyligini oshirish borasida qo'yilgan "Og'zaki va yozma nutqda so'zlarni funksional uslublarga mansubligini bilgan holda qo'llashlari" degan talabning mohiyatiga to'xtaladigan bo'lsak, o'quvchilar so'zlashuv nutqida, ilmiy nutqda, publisistik va badiiy uslublarda ishlatiladigan so'zlarni o'zaro farqlay bilishlari va shu bilimlariga nutqda amal qilishlari shart. Lekin e'tirof etish kerakki, so'z boyligi jadal oshayotgan, shakllanayotgan 5-, qisman 6-sinf o'quvchisi uchun bir yo'la ikki vazifani: ham yangidan-yangi so'zlar bilan tanishish, ham ularning uslubiy mansubligini bila boorish birmuncha qiyin yumush sanaladi.

O'quvchi mazmunli va ta'sirchan so'zlash zaruriyati bilan o'z so'z boyligini oshirar ekan, bu ishda dastlabki kezlarda cheklashlarga uchramasligi, ko'proq lug'at zahirasidan foydalanishi lozim. Bu ishlar bolalarni ortiqcha qiynab qo'ymaslik niyatida qilinadi.

1999-yilda qabul qilingan "Ona tili" davlat ta'lim standartida "Ona tili ta'limi oldiga qo'yilgan ijtimoiy buyurtma o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgalar fikrini anglashga va shu fikr mahsulini og'zaki hamda yozma shaklda bayon qila olishga, ya'ni kommunikativ savodxonlikni rivojlantirishga o'rgatishdan iborat", - deyiladi[4, 47]. Standartda: "Og'zaki va yozma nutqda so'zlarni funksional uslublarga mansubligini bilgan holda qo'llashlari, sinonim, omonim, paronim, undov so'zlarni, argon va jargon so'zlarni, iboralarni ishlatishlari, ularning uslubiy imkoniyatlarini, uslubiy bo'yoqdorlik darajasini bilishlari..." talab etiladi[4, 53]. Ko'rinib turibdiki, bunda ham nutq

mahsulining mazmundor va ta'sirchan bo'lishi lozimligi o'z ifodasini topmagan. Standart asosida yaratilgan darsliklar ham asosan shu yo'sinda yaratilgan.

Demak, o'quvchilarga mazmunni anglata olish va ta'sirchan gap tuzdirish yo'llarini ko'rsatish bilan bog'liq masalalarga oydinlik kiritish olish bilan bir qatorda, o'quvchida uni shakllantirishning mashq orqali amalga oshirilishini nazarda tutgan holda mashq turlarini sanab o'tamiz:

- O'tilgan ma'lumotga doir misol aytish yoki yozish;
- Berilgan so'z yoki so'z birikmasi asosida gap tuzish;
- O'tilgan qoidaga mos misolni darslikdagi mashqdan yoki badiiy parchadan topib aytish yoki yozish;
- Berilgan gaplar orasidan ta'sirchan gaplarni ajratish;
- Berilgan gaplarni ta'sirchan gaplarga aylantirish;
- Rasm (tasviriy san'at asari) asosida gap tuzish;
- Berilgan gaplarning ta'sirchan chiqishini ta'minlagan leksik vositalarni aniqlash;
- Gapdagi uslubiy xatoni aniqlash;
- Gapni tahrir qilish;
- Badiiy uslubda yozilgan gapni ilmiy uslubga aylantirish;
- Ikki matnni qaysi uslubga mansubligi nuqtayi nazaridan tahlil qilish;
- Gaptuzish jarayonida tanish kishilar, taniqli shaxslar, asar qahramonlarini ko'z oldiga keltirish;
- Gap tuzish paytida ruhiy holatni belgilab olish;
- Gap tuzish paytida nutqiy vaziyatni aniqlab olish;
- Gap tuzish paytida badiiy adabiyotga xos tasviriy vositalardan foydalanish;
- Matn yaratishga o'rgatish;
- Tabiat hodisalari asosida matn yaratish.

Xulosa shuki, o‘quvchilarni ta’sirchan gap tuzishga o‘rgatish uchun muntazam, uzluksiz ravishda ona tili darslarida mana shu tipdagi mashqlar bilan ishlashni tashkil etish o‘quvchilar nutqidagi ta’sirchanlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Капинос В.И. Культура речи // Методика развития речи на уроках русского языка: Пособие для учителей / Н.Е.Богуславская, 2. Ипполитова Н.А. Риторический аспект реализация методов обучения // Русский язык в школе. – 2007. №2. – С. 16.

3.http://uzviylik.tdi.uz/comment/?ELEMENT_ID=200&ID=7&PAGE_GEN_2=2 “O‘rta ta’limning milliy o‘quv dasturi” loyihasi Ona tili // Respublika ta’lim markazi. 2020-yil. Ona tili fani Milliy o‘quv dasturi . // Respublika ta’lim markazi. 2022yil.

4.Давлат таълим стандартига шарҳ. Она тили / Муаллифлар: Й.Абдуллаев, Р.Сафарова, А.Сайфуллаев, Р.Йўлдошев. // Умумий ўрта таълимнинг давлат таълим дастури. – Таълим тараққиёти. Ахборотнома, 1-махсус сон. – Т.: “Шарқ” нашриёт-матбаа концерни, 1999.

YOZMA NUTQ SAVODXONLIGI – MADANIYAT BELGISI

*Nargiza Ahmedova,
Oriental universiteti dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada yozma nutq va uning o‘ziga xos xususiyatlari, yozma nutqni shakllantirish omillari xususida fikr yuritiladi. Jamiyat a’zolarining o‘zbek tilidagi savodxonlik darajasi va

MUNDARIJA

1-SHO‘BA. O‘ZBEK TILSHUNOSLIGINING NAZARIY MASALALARI

Turdibekov Mo‘minjon. Onomasiologik sathda atoqli va turdosh otlilik masalasi.....	3
Xakimova Muhayyo. Badiiy matnda vaqt kontinuumining berilishi.....	10
Shukurov Otabek. Termin neologizmlarni o‘zlashtirish masalalari xususida.....	20
G‘aniyev Nurbek. Qiziltepa tumandagi oykonimlarning morfemik va morfologik xususiyatlari.....	27
Abdullayeva Dildora. Antisemik birliklarning antiteza hosil qilish imkoniyatlari.....	36
Uralov Azamat. A.Navoiy asarlarida nomutanosiblikning diaxron va sinxron ko‘rinishlari.....	42
Tursunov Akmal. O‘zbek tilshunosligida hozirgi va tarixiy so‘z yasash usullari va ularning munosabati.....	53
Mirzohidova Laylo. «Qutadg‘u bilig» dostonida ko‘chma ma’noli birliklar.....	58
G‘ulomova Nargiza. Alisher Navoiyning “Favoyid ul-kibar” devoni g‘azallarini grammatik teglash xususiyatlari.....	67
Karimova Feruzaxon. O‘zbek muloqot nutqida psixolingvistik qirralar.....	73
Ergashova Muhayyo. Madaniy o‘zgarishlarning tilda aks etishi.....	78
Xodjiyev Yusuf. O‘zbek tilida “bola” komponentli o‘xshatishlar.....	85
Atayev Azamat. Ogahiyning “Jome’ ul-voqe’oti sultoniyy” asarida arabizmlarning qo‘llanishi.....	93
Alimova Shahnoza, Sadullayeva Navbahor. Xorazm shevalarida	

arabiy qatlam masalasi.....	97
Absalamova Gulmira. Tilshunoslik hamda adabiyotshunoslik terminlarining turkum jihatlari.....	102
Sapayeva Boljon. O‘zbek tili gemeronimlarining tuzilish jihatdan turlari.....	106
Tadjiyeva Umida. O‘zbek tilshunosligida xalq maqollarini lingvomadaniy aspektda o‘rganish masalalari.....	113
Alimardanov Elyor. Xorazm shevalarining o‘rganilish tarixiga doir.....	118
Yuldosheva Mashhura. Badiiy asarda qo‘llangan frazeologizmlarining sotsiopragmatik xususiyatlari.....	123
Rayimjonov Sayidolim. Mahmudxo‘ja Behbudiyning milliy tilni rivojlantirishdagi xizmatlari.....	132
Yandashova Dilniso. Abdulla Oripov she‘riyatida “Vatan” konseptining lingvokulturologik tahlili.....	136
Usmonova Shahnoza. Abdurauf Fitrat asarlarida murakkab leksemalarning qo‘llanilishi.....	140
Moxinur Qurbonova. Muallif ixtirosi – okkazional birliklarning o‘ziga xos xususiyatlari.....	145
Tuxtasinova Z. M. O‘zbek va ingliz tillarida haqoratning evfemizmlar orqali ifodalanishi.....	151
Erkinova Marxobo. Matnda ijobiy baho bildiruvchi birliklarning assotsiativ maydon hosil qilishi.....	155
Jumayeva Marjona, Qandimova Inobat. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida shaxs nomlari.....	163
Muminova Umida. “Mahbub ul-qulub” asari so‘zlarining polisemantik tavsifi.....	169
Sharafutdinova Nilufar. O‘z qatlmga oid teonimlar.....	176
Abdujalilov Ma’rufjon. O‘zbek va rus tillarida qora rang bilan bog‘liq turg‘un o‘xshatishlar tahlili.....	181

Hamraqulova Guluzra. She'riy nutqda assonansning poetik imkoniyatlari.....	187
Jumayeva Marjona, Nizomova Zebo. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asaridagi zoonimik terminlar.....	194

2-SHO'BA. SHARQ TILLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR

Salimaxon Rustamiy. O'zbek xalq maqollari badiiyati.....	199
Ahmedova Dilfuza. Fors va o'zbek tillarida miqdor-daraja holining semantikasi.....	203
Sultonbek Boltaboyev. Arab tilidagi diakritik belgilarning tarixi haqida.....	211
Maxmudova Diyora. Arab tilida "uyadosh" so'zlar.....	215
Fayzullo Musayev. O'zbek adabiy ilmiy tilining bir asrdagi farqidan namuna.....	220
Alimova Zarifaxon. Fors tilidagi ayrim turkiy o'zlashmalar xususida.....	231
Jahongir Turdiyev. Temuriylar davlatining rasmiy tili va uning yozma yodgorliklarda aks etishi.....	239
Shasaidova Lola. Xitoy tilini bilish darajasida yozuv malakasiga oid vazifalarning o'ziga xos xususiyatlari.....	246
Ikromjonov Akmaljon. Faxruddin O'zjandiyning ilmiy merosi.....	253
Isamutdinov Azizbek. Arab nahvchilari talqinida "maf'ul"lar masalasi.....	261
Yakubova Feruza. Yangi pedagogik texnologiyalar yordamida arab tili darslarining samaradorligini oshirish.....	268
Po'latova Mahmuda. Arab tilida murodiflarning ahamiyati va sinonimiya hodisasining turli xilligi.....	273
Pulatova Dilrabo. Koreys tili ta'limida maqollar bilan bog'liq muammolar.....	277
Mamadjonov Sherzod. O'zbek va turk tillarida "aldoqchi so'zlar" va ularning til ta'limiga ta'siri.....	282

Tashmuxeimedova Dildora. Xitoy qadimgi venyan tilida undov so‘zlarning ifodalanishi.....	290
Boborajabov Muhammadiqbol. Arab va o‘zbek tillaridagi ruhiy holat ifodalovchi frazeologik birliklarning semantik tahlili.....	295
Abdullayev Oxunjon. O‘zbek va qoraqalpoq tillarida zamonaviy leksikaning lingvokulturologik tahlili.....	302
Hakimov Abdulvohid. Arab tilida ishtiyoqning xususiyatlari haqida.....	308
Mahmudov Akram. Arab grammatikasida eganing noaniq bo‘lib kelishi bayoni.....	315
Musurmanov Muhiddin. Tilshunoslikda navoiy asarlarining lingvistik o‘rganilishi.....	321
Xalilova Mo‘tabar. Arab tilini o‘rganishning miya faoliyatidagi ijobiy ta’siri.....	329

3-SHO‘BA. DAVLAT TILI VA UNING O‘QITILISHI

Yuldasheva Dilnoza. “Davlat tili haqida”gi qonunning yaratilish tarixi va hozirgi kunda qo‘llanilishi.....	337
Yusupova Tursunoy. Ona tili darslarida o‘quvchilar nutqidagi ta’sirchanlikni ta’minlash mazmuni.....	344
Ahmedova Nargiza. Yozma nutq savodxonligi – madaniyat belgisi.....	350
Karimova Shaxloxon. Kommunikativ yondashuvga asoslangan darslarda yozma matn ustida ishlashning pedagogik imkoniyatlari....	356
Shodmonova Munira. Ona tili va adabiyot o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish mazmuni.....	362
Shodiyeva Asila. Diplomantik yozishmalarning tili va uslubi.....	368

4-SHO‘BA. MADANIYATLARARO MULOQOT VA TARJIMA MASALALARI

Umurzoqov Bahriddin. Aliy Safiy Koshifiy Hiraviy - mohir xattot

va xos kotib.....	374
Tuychiyeva Oydin. Mushtarak maqollarning semantik xususiyatlari.....	386
Rahmatova Gavhar. Turkiy dostonchilikning tarixiy ildizlari.....	392
Usmonova Zulxumor. Abdulla Qodiriy tarjimalari.....	402
Dexkanov Qutfiddin. Kulliyot tuzishning o‘ziga xos xususiyatlari.....	407
Nurullayev Muxiddin. Tarjima so‘zining semantik ma’nolari.....	416
Аннакулова Умида. Межкультурные коммуникации и современные проблемы перевода.....	421
Yuldasheva Maxmuda. Adabiyot darslarini evristik yondashuv asosida tashkil etish.....	427
Qulmamatov Oybek. dozens hajviy janri namunalarini o‘zbek tiliga tarjima qilishda lingvokulturologik yondashuv.....	430
Mamasoliyeva Dilbarxon. Turli tillardagi o‘xshatishlar qiyosi.....	437
Axmadov Dostonbek. Bilvosita tarjimada mutarjim mahoratining namoyon bo‘lishi	441

5-SHO‘BA. XORIJIY TILLARNI O‘QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Mukhamedova Lola. Chet tilini o‘qitishda lug‘at boyligini shakllantirish va so‘z tanlash tamoyillari.....	448
Мусаджанова Гулчехра. Значение и влияние аудирования в обучении русского языка.....	458
Abdullayeva Zakhro. Teaching strategies for learners with social and emotional needs.....	466
Nizamova Salomat. O‘zbek va ingliz leksikografik manbalarida “ota” va “father” konseptlarining talqini.....	471
Munojat Rasulova. O‘zbek va ingliz dramatik diskursidagi metaforalarda gender semalarning xoslanishi.....	477
Eshkuvatov Jasur. O‘quvchilarda nutqiy savodxonlikni kreativ yondashuv asosida rivojlantirish usullari.....	483
Odilbekov Mansurbek. Xorijiy tillarni o‘qitishda pedagogik	490

texnologiyalar va psixologik kompetensiyalar.....	496
Алимарданова Шахло. Применение инновационных технологий в процессе обучения языкознанию в вузе.....	496
Toirova Guli. The role of antonyms in agricultural terms.....	502
Rashidova Madina. Xorijiy tillarni o‘qitishda qo‘llanilgan metodlar va ularning o‘ziga xos xususiyatlari.....	508
Olimova Nigora. A powerful diagnostic tool (eliciting) of the teacher in classroom management.....	515
Oripova Kamolakhan. Importance of “suggestopedic method” in teaching foreign languages.....	520
Rozikova Rano. Energizing language teaching with a project method in Uzbekistan.....	525
Mamanazarov Uchqun. G‘ofurova Madina. IELTS imtihoniga tayyorlanish jarayonining psixologik xususiyatlari.....	531
Мадаминова Наргиза. Способы активизации познавательной деятельности студентов.....	536
Abdimurodov Doston. Linguacultural analysis of the concept of “father” in uzbek and english proverbs and sayings.....	542
Qochqorova Zulfizar. Ingliz va o‘zbek tillarida “to‘y” konseptini voqelantiruvchi frazeologik vositalarning qiyosiy tadqiqi.....	549
Mamanazarov Uchqun. Alimova Dilnoza. Chet tillarini o‘rganishning psixologik xususiyatlari.....	554
Davronova Fotima. Methods of checking and evaluating homeworks while working in small groups of students.....	562
Abdurakhmanova Zubayda. Study stages and theoretical foundations of legal terminology in linguistics.....	570
Anarkulova Zubayda. O‘rolboyeva Diloobar Turli yoshdagi shaxslarga xorijiy tillarni o‘rgatish.....	575